

XIVA XONLIGINING XX ASRNING BIRINCHI CHORAGIDAGI RIVOJLANISHI

Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
o'qituvchisi*

Qurbonov Nortoji Abbas o'g'li

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining amalda bo'lgan ish yuritish tizimi va arxivishi holati boshqaruv hujjatchiligi jarayonlariga bevosita ta'sir etuvchi XIX – XX asr boshlarida Xiva xonlida ish yuritish va arxiv ishi tizimi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, arxiv, ish yuritish tizimi, hujjat, amal va mansablar.

KIRISH

Xiva xonligi arxivi va uning o'rganilishi. Xiva xonligi o'zbek davlatchigi tarixida muhim o'rin egallagan davlatlardan biri hisoblanadi. Xiva xonligining siyosiy hayoti, uning ma'muriy boshqaruv tartibi, amalda bo'lgan ish yuritish tizimi va arxivlarning vazifalari muhim ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'la oladi. Mazkur muammolar turli davrlarda olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

O'rta Osiyo mintaqasida mavjud bo'lgan Qo'qon va Xiva xonliklari va Buxoro amirligidan o'ziga xos tarzda ish yuritish, hujjatchilik shu bilan birgalikda arxiv tizimi xususida XX asrning birinchi choragiga qadar aniq ma'lumotlar yo'q edi. XX asrning 30-yillarida O'rta Osiyo xonliklarida arxivlar bo'lganligi o'z tasdig'ini topdi. Bular Qo'qon va Xiva xonlari, Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivlari bo'lib, ularda XVIII-XIX asrga oid hujjatlarning ma'lum qismi saqlanib qolgan.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishning uchinchi bosqichi Xiva xonligiga yo'naltirilgan edi. Dungan qo'zg'oloni Xinjanggacha cho'zilgan bir paytda Rossiya 1871 yili o'z e'tiborini Kuljaga qaratishdan to'xtatib, balki Markaziy Osiyoning boshqa bir tomonida buysunmas geografik joy hisoblangan Xiva xonligiga qaratdi. Yozma kelishuv rasman tan olingan bo'lishiga qaramasdan Britaniya Afg'onistonga o'z ta'sirini o'tkazish (Badaxshon) va Xuroson (Xorazm) ga tasir o'tkazmaslikka kelishildi. Rossiya 1873 yili General fon Kaufman boshchiligidagi Xiva xonligiga qarshi hujumini boshladi.

1873-yil 29-mayda ruslar Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrini bosib olgandan so'ng, xon saroyini talan-taroj qildilar. Moddiy boyliklar bilan bir qatorda qo'lyozma asarlar va arxiv hujjatlari Turkiston general – gubernatori K.P. Kaufmannning topshirig'iga asosan sharqshunos olim Aleksandr Kun tomonidan

Toshkentga olib kelindi. Arxiv va qo‘lyozmalarning tarkibi vamazmunini o‘rganib chiqqan Xiva ekspeditsiyasida bevosita qatnashgan A.L. Kun general-gubernatorga hisobot taqdim etadi. Unda olim mazkur hujjatlarni ikki guruhga bo‘lgan edi [2: 41].

Birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qanchavaqf mulki hujjatlarini, ikkinchisiga xatlar, arizalar, shuningdek, diplomatic yozishmalarni kiritgan. Umuman olganda, Xiva xoni saroyidan Sharq qo‘lyozmalaridan iborat 300 ga yaqin kitob, 129 nomda 140 jild tarixiy asarlar, 20 nafar shoirlarning 30 jildli asarlari, 50 jildli 40 ta huquqiy-diniy asar, bundan tashqari 18 ta Qur‘on va 50 ta darslik kitoblari to‘planganini ma‘lum qiladi. A.Kun Xiva xonligi hujjatlari asosidagi dalolatnomasida quyidagicha fikr bildirgan. “Xon saroyi musodara qilinganida, qo‘lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to‘plandi [2:63]. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlari hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlari orasida pul soliqlariga doir yozuvlar (solg‘ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbining xon xarajatlari to‘g‘risidagi hisobotlari bor. So‘ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G‘azalida, Istanbulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan Xivaliklarning Xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to‘g‘risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to‘g‘risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost- Indiya general gubernatorlari Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan Xiva xoni o‘rtasida tuzilgan ahdnoma hamda Turkiston general gubernatori tomonidan xonga yuborilgan birnechta maktub mavjud” [Йўлдошев М. Хива хонлигида феодалер эгалиги ва давлат тузилиши. – Тошент: Ўздавнашр, 1959.-Б.18.]

Ushbu noyob hujjatlarning bir qismi fon Kaufman tomonidan 1874-yil 28-martda Peterburg Fanlar Akademiyasi Osiyo muzeyi (hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasi)ga, qolganlari esa Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasi (Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi)ga yuborilgan. Uzoq muddat hujjatlar ilmiy muomalaga kiritilmasdan, tadqiqotchilar uchun noma‘lum bo‘lib qolgan. Xiva xonlari arxivini birinchi bo‘lib, 1936-yili sharqshunos olim P.P.Ivanov tomonidan tasodifan topib olinishi va o‘rganib chiqilishi tarix fani sohasida katta yutuq bo‘ldi. Mudomki, ushbu davrga qadar o‘zbek xonliklari tarixi mahalliy tarixnavislar asarlari yoki evropalik sayyohlar esdaliklari asosidayoritilgan edi. Xiva xonligi arxivi hujjatlari mazmunining sharqshunos P.Ivanov tomonidan tadqiq etilishi Xiva xonligi tarixini ma‘lumotlar bilan boyitishga xizmat qildi. P.Ivanov Saltikov- Shchedrin nomli xalq kutubxonasidan hujjatlar topib, Xiva tarixiga oid tadqiqotlarini doirasini kengaytishga muvaffaq bo‘ladi. Xiva xonlari arxivi hujjatlarini tizimli o‘rganish natijasida P.P. Ivanov “XIX asrdagi Xiva xonlari arxivi”

asarini nashr etgan. Biroq, olim arxivning Sharqshunoslik institutida saqlanib qolgan ikkinchi qismidan bexabar edi. Keyinchalik, mazkur hujjatlar 1951-1956 yillar Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan, 1953 yil “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan M. Yo‘ldoshev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. M. Yo‘ldoshev mazkur arxiv hujjatlari asosida Xiva xonligidagi yer egaligining qanday tarkib topganligi va yerdan kimlar foydalanganligini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan hamda butun mamlakatdagi yerlarning 9/10 katta yer egalari qo‘lida bo‘lganligini isbotlagan. Olim haqiqiy hujjatlarga tayanib, tarix fanida birinchi marta XIX asrda Xivadagi er-suv munosabatlarni, keng xalq ommasining hayotini, Xiva qishloqlaridagi murakkab ijtimoiy vaziyat va dehqonlar tabaqasi haqida to‘liq malumot beradi. M. Yo‘ldoshev O‘rta Osiyo xonliklari xo‘jaligida chorikorlik, yerni ijaraga olib ishlash shaklining keng tarqalmaganligi to‘g‘risidagi masalani yoritgan. Xiva xonligida soliq va majburiy ishlar haqida, soliq mahkamalarining tuzilishi, soliq to‘lovchilar toifalari va ularning miqdori hamda yig‘ilgan soliqlarning hajmi to‘g‘risida aniq malumotlar keltirib o‘tilgan. Tadqiqotchi tomonidan o‘rganilgan hujjatlar Xiva xonlari ma‘muriy tuzilishiga doir boy materiallarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, saroy ayonlari, ma‘muriy, harbiy, sud va diniy mansablar to‘g‘risida mukammal ro‘yxat keltiriladi hamda ularning mansab darajalari va vazifalari aniq ko‘rsatiladi.

Xiva xonligiga oid arxiv daftarlarining o‘qib chiqishning qiyinchiligi va bu sohada tadqiqotchining qilgan katta ishini alohida ta‘kidlab o‘tish kerak. Arxiv ilk marta topilgan davlat hujjatlari to‘plami shaklida emas, balki tarqoq holda yotgan tasodifiy qog‘ozlar yig‘ma jildidan iborat edi. 1962-yil O‘zbekiston arxivshunoslari tashabbusi bilan Respublika hukumatining talabiasosida hozirgi Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi (Leningraddagi) Saltikov- Shchedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasidan 10 158 varaqda Xiva xonlari hujjatlari yurtimizga keltirildi. Hozirda ushbu noyob arxiv hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Milliy davlatarxivida saqlanmoqda.

Xiva xonlari arxivlarini chuqur o‘rgangan olim M. Yo‘ldoshev arxiv daftarlari orasida saroy harajatlarini ko‘rsatuvchi juda ko‘p hujjatlar borligini aniqladi. Hujjatlar xon xazinasi qanday sarflanganligini aniq qilib ko‘rsatadi. Bu hol hujjatlarning ilmiy qimmatini oshirish bilan birga, ularni muhim tarixiy manbaga aylantiradi. Mazkur arxiv hujjatlarining o‘rganilayotgan davrda tartib bilan yozib borilishi, to‘planishi va saqlanishi ham O‘rta Osiyo xonliklaridagi yuksak madaniyat va taraqqiyotdan dalolat beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Daftarlardan Xiva xonligida taqdirlanish, mukofot tariqasida (orden, yorliq va medallar yo‘qligi) pul, er-suv, chorva yoki qimmatbaho buyumlar berilganligini bilib olishimiz mumkin [4;59].

Taqdirlash, turli jun mato va choponlar bilan mukofotlash usuli ham keng tarqalganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayrim hollarda mukofot tariqasida pichoqlar ham

berilgan. Xivada harbiy yurishlar vaqtida askarlarda davlat tomonidan tibbiy yordam ko'rsatilmamas edi. Yaralangan askarlar o'z hisobidan davolanishi kerak bo'lgan.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivi 125-raqam tarix fondi "Xiva xonlari devonxonasi" va "Xiva xonlari arxivi" deb atalgan birinchi va ikkinchi tavsiflari "Iqtisod" va "Qozi vasiqlari" bo'limida, hamda 323-fond birinchi tavsifida saqlanayotgan vaqfnomalarda Xiva madrasalari va ularning iqtisodiy manbalari to'g'risida noyob hujjatlar mavjud.

"Xiva xonlari arxivi" fondida "Yasovulboshining vaqf masalalari bo'yicha xon saroyiga chaqirilishi" deb nomlangan hujjatlar jamg'armasi saqlanadi. Mazkur hujjatlarni tadqiq etilishi ikki jihati bilan muhim bo'lib, birinchidan, sud-huquq, fiqh tizimida yasovulboshi institutining tutgan o'rni, uning funksiyalari haqida, ikkinchidan, vaqf ma'muriyati faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi. Yasovulboshining davlat boshqaruvi va sud-huquq, mirshablik tizimida tutgan o'rni masalasi atroflicha o'rganilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda asosiy e'tibor Xiva xonligida vaqf ma'muriyatining amaliy faoliyatiga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Historiography of the problem of record keeping and archival affairs of the Khiva
2. khanate in the XIX-early XX centuries. S.Xusanov.
3. Ёулдашев М.Й. XIX аср Хива давлат ҳужжатлари, ЎзССР ФА Т.1960. Болтаев А. Хоразм Тарихига Оид Ҳужжатлар // Қўлёзма. Ўзрфаши. - №9320; Хива Ҳақида Эсдаликлар
4. // Қўлёзма Ўзрфаши. - №11645;
5. Вохидов Ш. Холиқова Р. Марказий Осиё Давлатлари Бошқарув Тарихидан. – Тошкент. Янги Аср Авлоди, 2006; Яна Қаранг. Вохидов Ш. Сабурова Чс. Хива Хонлигида Унвон, Мансаблар ва Улар Эгаларининг Вазифадари
6. JURAYEV, X. (2018). About history of resettlement policy of the Russian Empire on migration of the Russian people to the Ferghana valley (based on the sources of the "Turkestanskiysbornik"). *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 53-55.
7. Juraev, K. The Problems Of Agronomic Assistance To The Population Interrogated To Turkestan By The Tsarist Russian Federation. *THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCINCES*, 147.
8. Жўраев, Х. П., Бекмирзаев, Р. Б., & Юсупов, Ж. (2022). ЧОР РОССИЯСИНИНГ ТУРКИСТОНГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИДА ЕР БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАРНИНГ ҲАЛ ЭТИЛИШИ. *ИТМОИЙ FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 54-59.
9. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ

ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ
МУАММОЛАР. *Research Focus*, 1(2),136-143.

